



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУЗ

АКТА НУУЗ

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI**

**JURNAL
1997-YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2023
1/2/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Shirinova R.X. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOШKEHT – 2023



O'ZMU XABARLARI

ВЕСТИК НУУЗ

АКТА NUUZ

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI ILMIY JURNALI**

**JURNAL
1997-YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN**

**2023
1/2/1**

**Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi**

Bosh muharrir:

MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor.

Bosh muharrir o'rinbosari:

ERGASHOV Y.S. – f-m.f.d., professor.

Tahrir hay'ati:

Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.

Ashirov A.A. – t.f.d., prof.

Balliyeva R. – t.f.d., prof.

Malikov A.M. – t.f.d., prof.

Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.

Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.

Mo'minov A.G. – s.f.d., prof.

Nishonova O.J. – f.f.d., prof.

Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.

Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.

Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.

Utamuradov A. – f.f.n., prof.

Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.

Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.

Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.

Shirinova R.X. – fil.f.d., prof.

Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.

Sa'dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.

Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.

Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas'ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOШKEHT – 2023

MUNDARIJA

Tarix

Abdullayeva D. Muzey ishlari, qadimgi yodgorliklar hamda san'at va tabiat muhofazasi bo'yicha Buxoro qo'mitasining faoliyati.....	4
Abdurasulova F. Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida sud va qozilik ishlari.....	8
Biykuziyev A. Markaziy Osiyo ko'chmanchi chorvador xalqlari tarixida Qang' davlatining ijtimoiy-iqtisodiy o'rni.....	11
Jo'rayev I. Sirdaryo viloyatining XX asr boshlari – XXI asr oxirlaridagi etnik tarkibi.....	15
Kamolova M. Liberalizmga ayblangan Turkiston general-gubernatori.....	18
Sarimsokov A. O'zbek xalq taqvimida hafta.....	21
Тангирбергенова К. Трудовые подвиги Каракалпакского народа во время второй Мировой войны.....	23
Tursunov B. Xorijiy tillar o'qitilishini takomillashtirishda xalqaro aloqalarning zamonaviy transformatsiyasi.....	27
Xasanova Z. Деятельность общества красного креста в Туркестане во время первой Мировой войны.....	31
Xasanova M. Популяризация историко культурного наследия в развитии туризма в Узбекистане.....	34
Чориев III. Ўзбекисонда ер-сув ислохотлари тарихига оид архив ҳужжатлари таҳлили (1924-1941-йй).....	38

Falsafa. Pedagogika. Psixologiya. Metodika. Sotsiologiya. Siyosiy fanlar. Islomshunoslik

Abdukirimova G. Yangi O'zbekistonda qariyalarning ijtimoiylashuvi va ularning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tutgan o'rni.....	41
Abdullaev N. Shaxslararo sport jamoasida liderlik mahorati.....	44
Abdullayeva Z. Raqamlashgan jamiyatda ishonch tushunchasining axloqiy mohiyati.....	46
Abdullajanova D. Kadrlar boshqaruvini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari (xotin-qizlar misolida).....	49
Arziqulov E. Inson faoliyatida iste'mol madaniyatining ijobiy va pragmatik jihatlarini namoyon bo'lishi.....	53
Bekchonova Sh. Raqamli ta'limda kiberpedagogika rivojlanishining istiqbollari.....	56
Boboqulov J. Innovatsion yondashuv asosida informatika fanini o'qitish metodlari.....	59
Botirova S. Zamonaviy psixologiya va pedagogikada kasbiy tashviqot motivatsiyasi muammolari.....	62
Djurayev A., Obidov A. Oliy ta'lim tizimi sifatini oshirishda moslashuvchan boshqaruvini modellashtirish zarurati.....	65
Jamolov Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematika fanidan tenglama tuzishni o'rgatish metodikasi.....	69
Jurayev J. G'arb olimlarining marginal shaxs va marginallik tushunchalariga oid ilmiy qarashlari.....	72
Ibadullayev Q. Pedagogik ta'lim klasteri bo'yicha xorij tajribasi.....	75
Isabayeva M., Ernazarova M. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarda o'quv bilish faoliyatini rivojlantirish yo'llari.....	78
Isomiddinov Y. Korruptsiyaga oid jinoyatlar va profilaktikasida xorijiy davlatlar tajribasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil.....	81
Kadrov M. Davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlari modelini aniqlashning nazariy-metodologik yondashuvlar.....	84
Karimov F., Komilov J. Сравнительный анализ двигательных перемещений футболистов высокой квалификации, как показатель их специальной физической подготовленности.....	89
Kasimov M. Afg'oniston muammosining sharqshunos-afg'onshunos olimlar tomonidan o'rganilishi xususida.....	91
Qurbonova B. Oliy ta'lim talabalarining ijtimoiy hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish.....	93
Matyoqubova Sh. Chet tillarini o'qitishda autentik materiallardan foydalanish samaradorligi.....	95
Махмудов К. III.Рашидовнинг шахс ва раҳбар сифатидаги фаолияти давр кўзгусида.....	97
Mirashirova N. Talaba-psixologlar ijtimoiy-psixologik portretida kasb tanlash motivlari.....	100
Mirsanov U. Jamoa bo'lib dasturlashni o'rgatishda virtual muhitlarning imkoniyatlari.....	104
Мойдинова Э. Характеристика формирования профессиональной компетенции будущих учителей английского языка.....	107
Mo'minova D. O'smir-qizlardagi delinkvent xulqni huquqiy vositalar yordamida profilaktika qilish.....	115
Мустафоева Д. Совершенствование технологии подготовки кадров технических высших образовательных учреждений.....	118
Amirova G. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda alisher navoiy merosidan foydalanishning metodikasi.....	122
Nasimdjanova M. Turli millat vakillari bo'lgan bolalarda inkulturatsiya jarayonining kechishida xalq maqollarining roli.....	125
Nasretdinova D. Milliy – madaniy taraqqiyot tarixidan.....	127
Nasretdinova F. Texnika ta'lim yo'nalishlarida elektron ta'lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari.....	129
Nafasova G. Bo'lajak fizika o'qituvchilarning mantiqiy kompetentligini rivojlantirishda integrativ individualizatsion yondashuvi.....	131
Norqulov H. Qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida o'smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik omillari.....	133
Nuratdinov S. Latviya politsiyasining huquq va vazifalarining sotsiologik tahlili.....	135
Nurullayev A. Harbiy xizmatchilar destruktiv ta'sirlarga tushmaslikni ta'minlashning psixologik usullari.....	138
Nurullaeva Z. Maqom san'atida go'zallik, ulug'vorlik, fojiaivlikning ifodalanishi.....	140
Ochilov Z. Musiqa darslarida multimediya texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati.....	143
Ravshanov L. Harbiy rahbarning boshqaruv tizimida imijning ijtimoiy-psixologik asoslari.....	145
Raximova X. Yetuklik davrida agressiv xulq-atvor kuchayishiga olib keluvchi psixologik sabablar.....	148
Rustamova T. Yolg'izlikni tadqiq etishdagi asosiy yondashuvlar va yo'nalishlar.....	150
Saidova N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik qobiliyatlarini rivojlantirish usullari.....	153
Sayfilloyev A., Sayfilloyeva Sh. Improving the methodology of primary school students' mastery activities.....	157
Satvoldiyev F. Maktab o'quvchilarining huquqiy ta'lim va tarbiyasini shakllantirish texnologiyalarining yangi bosqichlari (Andijon viloyati misolida).....	161
Tashmatova K. O'quvchilarda nomoddiy madaniy merosga oid tushunchalarni rivojlantirishda elektron dasturlardan foydalanish.....	164
Tojibaev B. Ta'lim kapitali va intellektual kapital sotsiologik dilemma sifatida.....	168
Toshpo'lotov Sh. Missionerlik va prozelitizmga qarshi kurash: O'zbekiston va jahon hamjamiyati kollaboratsiyasi.....	171
To'ychiyeva Sh. Kichik maktab yoshidagi davrda shaxsning rivojlanishi.....	175



Gulnoza AMIROVA,
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA ALISHER NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISHNING METODIKASI

Annotatsiya

Ushbu maqola buyuk mutafakkir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy merosini o'quvchilarni tarbiyalashdagi pedagogik imkoniyatlari, shuningdek, mehnat, kasb-hunar va ilm egallashning inson hayotidagi ahamiyati va bu merosdan o'quvchilarni o'qitishda foydalanish metodikalari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. Mutafakkir, shoir, ilm, hunar, barkamol shaxs, o'qitish, tarbiyalash, tugarak, muzey, sinf burchagi.

МЕТОДОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОЯ В ОБРАЗОВАНИИ ШКОЛЬНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация

В данной статье рассматриваются педагогические возможности наследия великого поэта и мыслителя, государственного деятеля Алишера Навои, а также значение труда, профессии и знаний в жизни человека, методы использования этого наследия в обучении студентов

Ключевые слова: Мыслитель, поэт, наука, ремесло, идеальный человек, преподавание, воспитывать, кружок, музей, уголок в классе.

METHODOLOGY OF USING ALISHER NAVOIY HERITAGE IN EDUCATION OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Annotation

This article discusses the pedagogical possibilities of the legacy of the great thinker, the sultan of words, Alisher Navoi, as well as the importance of work, profession and knowledge in human life, and the methods of using this heritage in teaching students

Key words: Thinker, poet, science, craft, Perfect person, teaching, education, museum, classroom corner.

Ulug' mutafakkir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalashning uslub va usullari, vositalari ham ifodalangan bo'lib, u ta'limda ilmiylikka asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarini yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. Bugun yangi O'zbekiston yoshlarini har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol avlod qilib tarbiyalash har qachongidan ham muhim vazifaga aylandi. Shu bois darsliklar yangilanmoqda, o'qituvchilarga yangi talablar asosida ishlash yo'llarini o'rgatuvchi metodik qo'llanma va tavsiyalar ishlanmoqda, lekin bu yo'lda ham ko'p ishlar qilinishi zarur. Ilmiy izlanishlar davomida o'tmishni o'rganishning mohiyati, ayniqsa o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda Alisher Navoiy merosining tutgan o'rni, undan foydalanish jarayonini tahlil qilishga harakat qildik. O'z tarixini yaxshi bilgan, ajdodlarini e'zozlagan xalqning istiqboli ham porloq bo'ladi. Zero kelajakka tashlangan qadam hamisha o'tmishdan boshlanadi. Mustaqillik sharofati bilan biz ham o'zligimizni anglash, ko'p asrlik ma'naviy merosimizni chuqur o'rganish va milliy qadriyatlarimizni tiklash imkoniyatiga ega bo'ldik. Ayniqsa, hozirgi kunda dolzarb masala bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashda ajdodlarning merosidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda ajdodlarimiz merosi va o'rni haqida so'z borar ekan, bu meroslar orasida Alisher Navoiy merosining tutgan o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, hech narsa Navoiyning teran nigohidan chetda qolmagan. Kasb-hunar tarbiyasi va uning inson hayoti hamda jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni borasidagi fikrlari ham hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Alisher Navoiy asarlarida halol mehnat, ijodiy mehnat katta o'rin tutadi. U kishilik hayotida mehnatning roliga baho berib,

-yuk chekmoq ila kishi zebolik erur-deydi. Demak, mehnat kasb-hunar insonni kamolotga yetkazadi.

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida dehqonning mehnatini ta'riflab, bunday deydi: "Olam ma'murligi alardan va olam ahli masrurligi alardin. Har qachonki qilsalar harakat, elga ham qut yetkuzgaylar, ham barakat" [1;182]

Mehnat elni baxtli qiladi Alisher Navoiy o'z asarlarida ijodiy qahramonlarini kasb hunarli mehnatkash insonlar sifatida gavalantiradi.

"Dedi: har ish qilmish odamizod,
Tafakkur birla bo'lmish odamizod.
Ulum ichra menga to bo'ldi madxal,
Topilmas mushkule men qilmog'on hal"[6;106].

Farhod arman o'lkasiga boradi va u erda go'zal Shirin amri bilan qazilayotgan kanalda zahmat chekib ishlayotgan odamlarga duch keladi. Toshloq erda kanal qazish nihoyatda mushkul ish edi. Farhod jon kuydirib ishlayotgan xaloyiqqa borib qo'shiladi va ularga yordam bera boshlaydi. U aqlini, bilimini, hunarini ishga soladi. Ijodiy mehnat natijasida, oz fursat ichida, kanal va hovuzni to'la -to'kis qazib tamomlaydi.

Farhod o'z kasb-hunari orqali, xalqqa mehnat mo'jizalari ko'rsatib, odamlar ishini engillashtiradi va ularning ruhini ko'taradi. U xalqqa yordam berish va unga xizmat qilishni o'zining burchi deb biladi. Har bir inson o'z hunarini xalq manfaati yo'lida xizmat qilishga lozimligini ta'kidlaydi:

"Hunarni asrabon netkudir oxir,
Olib tuproqqamu ketkumdir oxir"[6;106].

Navoiy bu bilan har bir xalq farzandi qo'lidagi hunarini xalq faravonligi uchun sarflashi lozimligi, ishlatilmaydigan, xalq uchun foyda keltirmaydigan hunarning oxir oqibat tuproqqa teng bo'lib hech kimga nafi tegmasligi mumkinligini aytmoqchi. Shuningdek alloma reja bilan, aql ishlatish bilan mehnat qilishni mahorat ekanligi va hunarning qadr-qimmatini ko'rsatadi. Hunar bilan oila, yurt obod bo'ladi.

Shuning uchun ham har kim mehnat qilishi, kasb-hunar o'rganishi kerakligini aytadi. Navoiy mehnatsiz rohat bo'lmasligini bunday ta'riflaydi:

“Mehnat aro har kimki, tahammul yo‘q anga,
Tarvijga mutlaqo taxayyul yo‘q anga” [6;106].

(Kimki mehnatga chidamsiz bo'lsa, uning ishini rivoj topishini xayolga ham keltirib bo'lmaydi.)

Navoiy xalol mehnat bilan o'z hunari orqasidan kun ko'rishni har qanday narsadan ortiq ko'radi. Kasb-hunar orqali topilgan daromad kishini har qanday tamadan ozod qiladi. Hayotini lazzatli qiladi. Halol mehnat qilish kishining eng yaxshi fazilati ekanligini ko'rsatuvchi mana bu hikoya diqqatga sazovordir:

Navoiyning o'zi ham mehnatsevar inson bo'lgan. U umr bo'yi xalq uchun, xalq manfaati uchun xizmat qilib keldi. U charchashni bilmas edi:

“Kim bor edi boshima ko‘p mehnatim,
Yo‘q edi bosh qashig‘ali fursatim” [6;107].

U har bir kishini vaqtini behuda o'tkazmasdan kasb-hunar o'rganishga va uning sirlarini puxta egallashga, o'z vaqtida bajarishga da'vat etadi.

Ulug' shoir kasb-hunar egallash, ilm o'rganishning ahamiyati va xosiyati haqida "Saddi Iskandariy" dostonida quyidagi hikoyani keltiradi.

"Xurosonda ikki o'rtoq bo'lgan edi. Ular bir-birlarini g'oyat hurmat qilar edilar. Zamon hodisalari ularning ishiga shikast etkazdi; maishat-tirikchilik ishida qo'llari qisqa bo'lib qoladi.

Bittasi mamlakatni, yurti tark qilmadi, lekin bittasi, -safarni ixtiyor qildi.

U yo'lda ajib ishlar ko'rdi. Uning yo'li unon sariga tushdi, o'lik obihayvonga etushgunday edi.

Tuprog'i hikmatli er ko'rdi, bir qancha vaqt u erda turdi: bilimga, ilm kasb etishga kirishdi. U donishmandlar bilan hamsuhbat bo'ldi, havas-rag'bat-qiziqish bilan ko'p ilm va hunarni kasb etdi.

U qobiliyatli edi, shunga ko'ra ham hisobsiz ilmdan xabardor, bilimda jahon faylasufi bo'ldi" [6;721].

Shoir ilm-hunarni puxta o'rganish bilan birga hamma vaqt dono kishilar bilan maslahat qilish zarur ekanini, maslahatli ishning samarali bo'lishini ko'rsatadi. U ilm-hunarni har narsadan yuqori qo'yadi. Qayeda odamlar ilmi bo'lsalar, ilmga, hunarga alohida diqqat etilsa va ular rivojlantirilsa, shu erda davlat borgan sari rivojlanadi va donolar maslahati bilan ishlagan davlat sharaflil bo'ladi, baxtli bo'ladi. Ana shuning uchun ham yosh avlodga bilim-hunar o'rgatish, fan-ilmi xalq o'rtasida keng tarqatmoq zarur:

“Hunarga intil, xalqqa hunar soch
Eshiklar bekilsa, er bo‘l, ularni och
Har kim o‘rganishni hisoblamasa or,
Suvdan dur, toshdan gavhar chiqarar” [6;37].

Navoiy davrida yashagan xalq ilm va hunar o'rganishni istar edi. Lekin xalqning bu istagini amalga oshirishga xizmat qiladigan ta'lim muassasasi deyarli oz edi. Ilmga havas qo'yan, hunar o'rganishni istagan yoshlar davlat tomonidan hech qanday madad berilmayotganini va o'quv yurtlari o'z maqsadlarini amalga oshirishga imkon kishilar yordamida o'z tashabbuslari bilan ilm va hunar o'rganishga kirishadilar.

O'sha davrda ilm va hunar toliblari yolg'iz ikki yo'ldan foydalanishlari mumkin edi:

Shogirdlik yo'li bilan ilm va hunar o'rganish:
O'z-o'zidan o'rganish.

Alisher Navoiy davrida shogirdlik yo'li bilan ilm, hunar va san'at o'rganish ancha keng tarqalgan edi. Shogirdlar o'sha davrdagi fan va san'at mutaxassislaridan (tabib, kimyogar, shoir, san'atkorlar, hunarmandlar, hattot, me'mor va shuning kabilardan) ilm yoki hunar o'rganar edilar. Hunar-sa'at ustalarining shogirdlari, ayniqsa ko'p bo'lar edi.

Alisher Navoiyning fikricha, inson el orasida kasb-hunari, bilimi, uzoq yillik mehnati natijasida hurmat topadi.

Mutafakkir shoir mehnatsevarlik tushunchasini xalqparvarlikda deb biladi:

Odamiy ersang, demagil odami
Onikim, yo‘q xalq g‘amidim g‘ami. [5;5].

Bu-Navoiyning inson haqidagi qarashlari tizimida eng muhim nuqta. Zero, shoirning o'zi ham kasb-hunar orqali xalqqa qancha ko'p foydang tegsa, bu narsaning o'zingga foydasi ko'proq, degan aqida bilan yashagan:

Naf'ing agar xalqqa beshakduru,
Bilki, bu naf' o'zingga ko'prakdurur [5;5].

Navoiyning nuqta nazariga ko'ra, kasb-hunarni molu dunyoni yig'ish uchun emas, balki xayrli ishlarga, xalq farovonligi yo'lida sarflash kerak. Uning o'zi shunday yo'l tutadi va boshqalarni ham shunga da'vat qiladi. Shoirning yozishicha, pulu boylikning quliga aylangan, jonini tikib molu dunyoga intilgan kishi hech qachon aziz bo'lmaydi:

Hargiz bo'lmas johu diram zori aziz,
Jon naqdi berib, siym xaridori aziz. [5;5].

Xalq hayotini eng chuqur qatlamlarigacha, ikir-chikirlarigacha yaxshi bilgan Navoiy xalqni sevadi, xalq farovonligi yo'lida tinimsiz ijod qiladi.

Alisher Navoiy o'z davrida xalq bolasi ilm olishi hunar o'rganishi uchun "Ixlosiya" madrasasi yonida maktab ochib, o'z vaqfidan mablag' ajratadi. Madrasada ta'lim olayotgan har bir talabadan ilmga qattiq intizomga rioyo qilishi talab etilgan.

Alisher Navoiy o'zi barpo etgan "Ixlosiya" madrasasiga o'z zamonasining etuk mudarrislarini yig'di va ilm-hunar izlagan talabalar ana shu madrasalarda ilm peshvolaridan tahsil olganlar. Navoiyning ilm-hunarga intiluvchilar uchun va jamiyat ilm-fani rivoji yo'lidagi rahnomolining o'ziyoq allomaning o'zi ham juda ilmi va mehnatsevar shaxs bo'lganligining yaqqol isbotidir.

Shunday ekan, o'quvchilarni boshlang'ich sinndan o'qitish jarayonida Navoiy hayoti va faoliyati, ijodi bilan yaqindan tanishtirib bormoqlik bugungu-i kun vazifasidir. Shuni ta'kidlash joizki, ulug' mutafakkirning Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayrat ul-abror" asarlari hikmatlar xazinasi, ibratli hikoyalar sarchashmasi hisoblanib, bu ikki asardagi har bir jumla, fikr hikmatnoma ekanligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Bilmaganni so'rub o'rgangan olim va orlanib so'ramagan o'ziga zolim. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur. O'rganurdan qochg'on lavand va yuziga hiyal va bahona eshigin ochg'on tanand. Emgak tortib ilm o'rgangan xiradmand.

Bayt: Ilmda oriy ulusning johili xudkomasi,

O'rganurga jiddu jahd etgan jahon allomasi. [1;65]

Ayniqsa, Alisher Navoiyning o'lmas badiiy-pedagogik g'oyalari insonning, demakki bolalarning ham ma'naviy-ruhiy, aqliy, axloqiy-estetik va boshqa jihatlardan jadal rivojlanishi jarayonini mukammalroq anglashga, ta'lim-tarbiya, ma'naviyat, ma'rifat sohalaridagi shu kunning amaliy vazifalari, muammolarini to'g'ri hal etish va bajarishga ko'maklashadi.

Navoiy asarlaridagi insonparvarlik g'oyalari asosida:

- ta'lim-tarbiya natijasida bola jamiyat uchun foydasi tegadigan komil inson bo'lib ulg'ayadi;

- odamlardan ajralib, yakkalanib qolgan, jamiyat ta'siridan tashqarida bo'lgan kishi inson qatoriga kira olmaydi;

- tarbiyaning maqsadi yoshlarni, bilimni, mehnatsevar, insonparvar, axloq-odobli, yaxshi fazilat egalari qilib voyaga yetkazishdir;

- ilm inson kamoloti uchun eng zarur fazilatdir;

- mehnat-boylik baxtli va farovon turmushning manbai;

-haqiqiy inson, halol-pok, insofli, mehnatsevar, to'g'ri so'z, sahovatli, hayoli, muruvvatli, kamtarin shaxsdir degan g'oyalar oldinga suriladi [4;64].

Alisher Navoiy merosidagi anashu g'oyalarni o'quvchilarni o'qitish jarayonida ongiga singdirish jarayonida Alisher Navoiy merosini, uning mazmun va mohiyatini o'quvchilarga yetkaza olish ularda axloqiy-estetik sifatlarini tarbiyalash zaminidir muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashda jarayonida, ularning badiiy dunyoqarashini kengaytirishda, avvalo, shoir tarjimai holini uning asarlaridagi rang-barang hayotiy tajribasi bilan uyg'un holda o'rganish ajoyib vosita bo'lib xizmat qiladi.

Afsuski, ba'zi o'qituvchilar darslarida shoir hayoti va ijodini o'rgatish zerikarli o'tiladi. Bunday darslarda o'quvchining qalbi hayajonlanishi, jonli fikr uyg'onishi, shoir shaxsiga, uning hayoti va ijodiga qiziqish uyg'onishi kerak. Bunin guchun, birinchidan, qiziqarli, shoir hayotini aks ettiruvchi boy material qo'llanilishi kerak, ko'rgazmalardan keng foydalanish kerak: shoir portreti, reproduksiyalari, haykalchalari, ikkinchidan, sinfdan tashqari mashg'ulotlar, to'garaklar olib borish, suhbat, badiiy asarlarning magnit lentalarida giyozuvlaridan foydalanish, spektakl va badiiy filmlarni tomosha qilish, badiiy havaskorlik to'garaklari, viktorina, ko'rgazma, adabiy jurnal, al'bomlar, muzeyga sayohatlarni tashkil qilish. Albatta, bularning hammasini tashkil qilib bo'lmaydi, lekin o'qituvchi o'quvchilarning yoshiga qarab, imkoniyati, qiziqishlariga qarab yuqoridagi mashg'ulotlarning ba'zilarini tanlab olishi mumkin. Bularning hammasi o'quvchilarning faolligini oshiradi.

O'qituvchi "Navoiy" mavzuning kirish qismiga katta mas'uliyat bilan tayyorlanishi kerak, o'quvchilarning shoir ijodiga qiziqishining mustahkam, barqaror bo'lishishunga bog'liq.

Shu o'rinda Alisher Navoiy ijodidan ba'zi darslarni o'rganish

Ko'pgina maktablarda sinfdan tashqari o'qish bo'yicha suhbat-darslar zerikarli, savol-javob tarzda o'tadi. "Mening sevimli kitobim", "Mening sevimli qahramonim", "Alisher Navoiy she'rlari menga yoqadi" mavzusida insholar, sinfdan tashqari o'qishga bag'ishlangan so'rovnomalarga javoblar kabi ishlar olib boriladi.

Ilmiy-ommabop va badiiy filmlardan foydalanish. Kino o'quvchilarning eng sevimli san'at turlaridandir. U o'qituvchiga o'quvchilarni estetik tarbiyalashda qo'l keladi.

O'qituvchifilmni dastlab ko'rgan bo'lishi kerak. Uni tushuntirish qulay bo'lishi uchun shartli birnecha qismlarga taqsimlanadi. O'qituvchi zarur bo'lganda filmni to'xtatishi, qaytadan orqaga aylantira olishi zarur.

Shuningdek, Navoiy merosini o'quvchilar yaxshi o'rganishi va mazmun mohiyatini anglashlari uchun "To'garak ishlari"dan foydalanish ham ayni maqsadga muvofiq hisoblanadi.

To'garak ishlari

Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ijodini o'rganish orqali o'quvchilar savodxonligini oshirish to'garakning maqsadini tashkil etadi.

To'garakda quyidagi ishturlari olib boriladi:

-ruboyini ifodali o'qish, hikmatli so'zlarni, asarlarni o'rganish va ularni muhokama qilish;

-to'garak a'zolariga Navoiy merosiga oid mavzudagi maruzalarni bayon qilish va eshitish;

-devoriy gazetalar, taqdimotlar tayyorlash;

-adabiy kecha, munozara (baxs) larga tayyorgarlik ko'rish

-muzey va teatrlarga borish.

Maktablarda o'quvchilarni Navoiy merosiga nisbatan qiziqish va muhabbatni tarbiyalashda "Navoiy asarlarini o'rganamiz" deb nomlangan sinf burchagi tashkil etish mumkin. Bunda asososan sinf kitobjavonlariga Navoiy ruboiylari, hadislar va asarlari bir oy davomida joylashtiriladi va har bir o'quvchisiga darsdan so'ng Navoiy ijodiga oid nimanidur ertagacha o'rganib kelish topshirig'i beriladi. Harftaning oxirida eng ko'p Navoiy ijodi haqida ma'lumot o'rgangan o'quvchilar Navoiy asarlari bilan rag'batlantirib boriladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Navoiy ijodiyoti ulkan ma'naviyat-madaniyat chashmasi hisoblanib u o'quvchilar qalbini ilm-ma'rifat, insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlikka biinsonni komillikka etaklovchi fazilatlariga undaydi. Bir so'z bilan ifodalamoqchi bo'lsak Alisher Navoiy asarlari, yaxlit olganda, hayot qomusiga o'xshaydi. Chunki biror-bir hayotiy masala, insonga xos qadriyat va tuyg'ular, fazilat va illatlar yo'qki, Navoiy asarlarida qalamga olinmagan bo'lsa. Zero, bu borada birinchi prezidentimiz I.Karimov "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" [3;90] deb ta'rif berishlarining o'ziyoq Navoiy ijodiyoti bebaho xazina ekanligini anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar, 15 tomlik, T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1996. 89-b.
2. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. -T.:G'.G'ulomnomidagi adabiyotva san'atnashr., 2006. -349 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
4. Hamroyeva H.N.Alisher Navoiyning insonparvarlik g'oyalaridan foydalanib o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari. Ped.fan.nom... diss. Toshkent, 2008. -131 b.
5. Ochilov E. Alisher Navoiy hikmatlar.-T.: O'zbekiston, 2011.-407 b.
6. Husanxodjayev I, Alisher Navoiy ta'lim-tarbiy haqida, Toshkent, O'rta va oiliy maktab, 1963.- 140 b